



### O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA TARIXIY-ADABIY JARAYONGA NISBATAN TURLICHA TALQINLAR TAHLILI

**Ahmadaliyev Lochinbek Muhammadyusuf o‘g‘li,**  
*University of Business and Science*  
*Til va adabiyot ta’limi kafedrası dotsenti v.b.,*  
*filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20725558>

**Annotatsiya.** Mazkur maqola o‘zbek adabiyoti tarixidagi adabiy muhit tushunchasini tizimli tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada adabiy muhitning shakllanish omillari, uning tarkibiy elementlari va tarixiy bosqichlari batafsil yoritilgan. Shuningdek, adabiy muhit tushunchasining adabiy maktab, davra va harakat kabi turdosh tushunchalar bilan o‘zaro nisbati qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqot natijasida adabiy muhitlar nafaqat hududiy, balki ma’naviy-estetik yaxlitlik ekanligi isbotlangan.

**Kalit so‘zlar:** Adabiy muhit, genezis, adabiy maktab, adabiy davra, Hirot adabiy muhiti, Qo‘qon adabiy muhiti, Xiva adabiy muhiti, jadid adabiyoti, poetik tizim, ijtimoiy-madaniy kontekst.

**Abstract.** This article is devoted to the systematic analysis of the concept of “literary environment” in the history of Uzbek literature. The factors of formation, structural elements, and historical stages of the literary environment are covered in detail. Furthermore, the correlation between the concept of literary environment and related terms such as literary school, circle, and movement is researched from a comparative-typological perspective. As a result of the study, it is proven that literary environments are not only geographical entities but also spiritual-aesthetic unities.

**Keywords:** Literary environment, genesis, literary school, literary circle, Herat literary environment, Kokand literary environment, Khiva literary environment, Jadid literature, poetic system, socio-cultural context.

**Аннотация.** Данная статья посвящена системному анализу понятия “литературная среда” в истории узбекской литературы. В статье подробно освещены факторы формирования, структурные элементы и исторические этапы литературной среды. Также в сравнительно-типологическом аспекте исследовано соотношение понятия литературной среды с такими смежными понятиями, как литературная школа, кружок и движение. В результате исследования доказано, что литературные среды являются не только территориальной, но и духовно-эстетической целостностью.

**Ключевые слова:** Литературная среда, генезис, литературная школа, литературный кружок, Гератская литературная среда, Кокандская литературная среда, Хивинская литературная среда, джадидская литература, поэтическая система, социально-культурный контекст.

**Kirish.** Adabiyotshunoslikda shoirlarning ijodi va adabiy aloqalarini makon va zamonga nisbatan tadqiq etishda adabiy muhit, adabiy davra, adabiy harakat, adabiy to‘garak, adabiy maktab kabi istilohlar bilan yuritiladi. Biroq ushbu tushunchalarni qo‘llashda so‘nggi yillarda turfa xilliklar yuzaga chiqmoqda. Adabiyotshunoslik fanining hozirgi rivojlanish bosqichida adabiy jarayonni faqatgina ayrim ijodkorlar merosi sifatida emas, balki yaxlit bir tizim – adabiy muhit sifatida o‘rganish muhim

ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbek adabiyoti boy va rang-barang tarixga ega bo‘lib, u turli davrlarda o‘ziga xos markazlar atrofida rivojlangan. Ushbu muhitlarni o‘rganish milliy adabiyotimizning ichki qonuniyatlarini tushunishga xizmat qiladi.

Adabiy muhit tushunchasi ko‘p hollarda noto‘g‘ri talqin qilinadi. Ba‘zan u faqat geografik tushuncha sifatida, ba‘zan esa shunchaki shoirlar yig‘indisi sifatida qaraladi. Vaholanki, adabiy muhit murakkab sotsiomadaniy mexanizm bo‘lib, u o‘ziga xos estetik prinsiplarga ega.

**Metodologiya.** Ushbu tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, sistem-struktural va germeneytik metodlardan foydalanildi. Qiyosiy-tarixiy metod asosida turli davr va hududlardagi, masalan, XV asr Hirot va XIX asr Qo‘qon adabiy muhitlarni taqqoslash orqali umumiy qonuniyatlarni aniqlangan bo‘lsa, sistem-struktural metod orqali esa adabiy muhitni tarkibiy qismlarga, jumladan, shaxs, homiy, kitobxon, an‘ana kabilarga bo‘lib o‘rganishga e‘tibor qaratildi.

**Natijalar.** Adabiy muhitning shakllanishi tasodifiy jarayon emas. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, u quyidagi to‘rtta asosiy unsurga tayanadi:

1. Ijtimoiy-siyosiy va moddiy asos: Kuchli markazlashgan davlat yoki barqaror iqtisodiy muhit. Masalan, Temuriylar davri yoki Amir Umarxon va Muhammad Rahimxon Feruz davridagi Qo‘qon va Xiva xonliklaridagi nisbatan barqarorlik adabiy yuksalishga zamin yaratgan.

2. Etalon shaxs (liderlik): Har qanday muhit o‘zining ma‘naviy rahnamosiga ega bo‘ladi. Hirotida bu vazifani Alisher Navoiy, Xivada Ogahiy, Qo‘qonda esa Amiriy va Nodira bajargan.

3. Badiiy aloqa va muloqot tizimi: Mushoiralar, majlislar va ijodiy bahslar. Bu jarayonda shoirlar bir-biridan o‘rganadi, naziralar yozadi va o‘zaro raqobatlashadi.

4. Uslubiy yaxlitlik va an‘ana: Muayyan muhitga xos bo‘lgan poetik obrazlar tizimi, janrlar ustuvorligi (masalan, Xiva muhitida tarjimachilik va tarixnavislikning ustuvorligi).

Adabiyotshunoslikda, xususan, hozirgi ilmiy-adabiy jarayonda adabiy muhitlar haqidagi noto‘g‘ri talqinlar, xato qarashlar ham mavjud:

**Geografik determinizm:** Shoir qayerda tug‘ilgan bo‘lsa, u albatta o‘sha adabiy muhiti vakili degan qarash. Bu xato, chunki shoir ruhan va usluban boshqa muhitga mansub bo‘lishi mumkin. Masalan, Bobur Hindistonda bo‘lib, Temuriylar adabiy an‘anasini davom ettirgan. Junaydulloh Hoziq, garchand, Hirotida tug‘ilgan, Buxoroda tahsil olgan va ilk faoliyatini shu yerda boshlagan bo‘lsa-da, u aslida Qo‘qon adabiy muhiti vakili.



Saroy bilan cheklash: Adabiy muhitni faqat xon saroyi bilan bog'lash. Aslida, xalq orasidagi qissaxonlar, baxshilar va tasavvufiy tariqatlar ham adabiy muhitning ajralmas qismidir.

Adabiy muhitning turdosh tushunchalardan farqi masalasi adabiyotshunoslikning eng bahsli nuqtalaridan biridir.

Adabiy muhit – eng keng tushuncha. U o'z ichiga bir nechta maktab va davralarni qamrab oladi. Masalan, Qo'qon adabiy muhitida ham lirik maktab, ham hajviy yo'nalish, ham ayollar poeziyasi mavjud bo'lgan.

Adabiy maktab: Uslubiy birlik. Bu yerda ustoz-shogird tizimi qat'iy bo'ladi. Bir ijodkorning an'analariga boshqa ijodkorlar, asosan, keyingi davr shoirlari ergashadi, uning ijodini o'zlari uchun namuna sifatida belgilab olishadi. Masalan, Navoiy maktabi. Alisher Navoiydan keyingi deyarli barcha shoirlar u yoki bu darajada unga ergashishgan. Bu jarayon adabiyotshunoslikda badiiy ta'sir va izdoshlik masalasi deyiladi.

Adabiy davra: Tor doiradagi, ko'pincha norasmiy uchrashuvlar. Masalan, Muqimiy davri Qo'qon shoirlari adabiy davrasi, Charxiy davri Qo'qon shoirlari adabiy davrasi va b.

Adabiy harakat: Aniq bir ijtimoiy-siyosiy g'oya atrofida birlashgan ijodkorlar. Masalan, jadidchilik harakati va uning natijasida vujudga kelgan jadid adabiyoti.

Adabiy to'garak: Mumtoz shoirlar tomonidan o'zaro tashkil etilgan adabiy majlislar, she'rxonlik davralari, suhbat anjumanlari, ustoz-shogirdlik aloqalari o'tgan asrga kelib adabiy to'garaklarning shakllanishi uchun muhim poydevor vazifasini o'tagan.

Zamonaviy adabiy to'garaklarni mumtoz adabiyotimiz davridagi she'rxonlik davrlari bilan farqi qiyoslansa, adabiy majlis, mushoira va suhbatlar shaklidan rasmiy to'garak shaklida faoliyat yurita boshlagan. Ustoz-shogird an'anasi kuchli bo'lgani holida endilikda unga o'qituvchi yoki rahbar tomonidan boshqarila boshlagan. G'ayratiy nomidagi to'garak bunga yaqqol misol bo'la oladi. Saroy, madrasa va xususiy majlislarda o'tkazilgan she'rxonliklar maktab, universitet va madaniyat markazlariga ko'chdi. Avvallari professional shoirlar ko'proq qatnashgan holida zamonamizga kelib havaskor va yosh ijodkorlar ko'pchilikni tashkil etadigan bo'ldi.

Shunday qilib, adabiy to'garak – adabiyotga qiziquvchi shaxslarning ma'lum tashkiliy shakl asosida birlashgan ijodiy-ma'rifiy uyushmasi bo'lib, uning asosiy vazifasi badiiy ijod ko'nikmalarini rivojlantirish, adabiy bilimlarni oshirish va yosh iste'dodlarni tarbiyalashdan iborat.

Hirot adabiy muhiti turkiy adabiy muhitlarning cho'qqisidir. Navoiy "Majolisu-n-nafois" asarida ushbu muhitning 459 nafar vakili haqida ma'lumot



beradi. Mazkur adabiy muhit namoyandalari o‘z asarlarida arab, turkiy va forsiy tillarning imkoniyatlaridan samarali foydalana olishdi, o‘z navbatida, turkiy til va adabiyotning o‘zaro boyishini ta‘minlay olishdi [1]. Ushbu adabiy muhit keyingi barcha turkiy adabiy muhitlar uchun “etalon” vazifasini o‘tadi. Hirot adabiy muhitida ko‘plab janrlar turkiy adabiyotda ilk bor qo‘llanildi. Avvalo, turkiy adabiyot arab yoki fors-tojik adabiyotidan hech bir jabhada ortda qolmasligi, barcha adabiy tamoyillarda birdek raqobat qila olishi isbotlab berildi[2]. Tazkira, arba’innavislik, munshaot, aruz kabi adabiy masalalarga doir ilk turkiy asarlar ayni shu adabiy muhitda ilk bor yozilgan.

Qo‘qon adabiy muhitida lirik poeziya o‘zining eng nafis shakllariga ega bo‘ldi. Ayollar ijodining keng quloq yoyishi; nazira, payrav, tatabbu’ uslubining keng tarqalishi; tazkiranavislikda yangicha yondashuvning vujudga kelishi, hikmatnavislikda parodiyaning paydo bo‘lishi, sayohatnomaning alohida janr darajasiga ko‘tarilishi, badiiy ta‘sir va izdoshlik masalasida katta uchlikka murojaatning ustuvorligi: Alisher Navoiy, Abdulqodir Bedil, Muhammad Fuzuliyar ijodiga murojaat. Ayniqsa, Fuzuliya ergashish nihoyatda kuchli tus olgan va natijada, garchand, Farg‘ona vodiysi o‘g‘uz lahjasidan ancha yiroq bo‘lsa-da, shoirlar asarlari badiiy tilining o‘g‘uz lahjasiga moslashishi kuzatilgan [4]. Butun ijodini fuzuliyona ruhdan tashqariga olib chiqmagan, faqat shu uslubda ijod qilgan shoirlar yetishib chiqqan. Masalan, Xon ijodi bunga yaqqol dalil bo‘la oladi. Ushbu adabiy muhitning muhim tamoyillaridan yana biri mushoira madaniyatining ommaviylashuvi bo‘ldi. Fazliy Namangoniy boshchiligida tuzilgan “Majmuai shoiron” qo‘lyozma va toshbosma nusxalarida 63 tadan 104 tagacha shoirlar haqida ma‘lumotlar berilgan [5].

Feruz davri Xiva (Xorazm) adabiy muhiti o‘zining realistik yo‘nalishi va tarixnavisligi bilan ajralib turadi. Uning boshqalardan farqli tomoni tarjimachilikka bo‘lgan ehtiyoj juda yuqori bo‘lgan. Ogahiy boshchiligida jahon va Sharq adabiyotining durdonalari o‘zbek tiliga o‘girilgan. Uning muhim jihatlaridan biri badiiy asar bilan tarixiy haqiqatning sintezi yoxud deyarli har bir ijodkorda shoirlik, tarjimonlik, tarixnavislik va sozandalikning uyg‘unlashuvida ko‘rinadi. Ahmad Tabibiyning “Majmuai si shuaro payrai Feruzshohiy” hamda “Majmuai si shuaro muxammasoti Feruzshohiy” kabi tazkiralarda 30 nafar shoir haqida ma‘lumotlar berilgan [6].

**Muhokama.** Rus adabiyotshunosi va nazariyotchisi Gennadiy Nikolayevich Pospelov (1899–1992) adabiy muhit va adabiy jarayonning sotsiologik hamda estetik jihatlarini tadqiq etgan fundamental olimlardan biri bo‘lib, uning qarashlari adabiyotni shunchaki matnlar to‘plami emas, balki ijtimoiy ongning bir shakli sifatida

tushunishga qaratilgan [6]. Pospelovning “adabiy muhit” (“литературная среда”) haqidagi konseptual fikrlarini quyidagi asosiy nuqtalarga umumlashtirish mumkin:

### 1. Adabiy muhit – ijtimoiy ongning mahsuli.

Pospelov o‘zining “Adabiyot nazariyasi” (“Теория литературы”) asarida adabiy muhitni jamiyatning ma’lum bir qatlami ichidagi g‘oyaviy-estetik muloqot maydoni sifatida ta’riflaydi. Uning fikricha, adabiy muhit o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, balki jamiyatdagi ijtimoiy guruhlarning “dunyoqarash birligi” (“идеологическое единство”) asosida shakllanadi [7].

### 2. “Ijodiy atmosfera” va muloqot.

Pospelov adabiy muhitning asosi sifatida jonli muloqotni ko‘rsatadi. Uning talqiniga ko‘ra, adabiy muhit:

- yozuvchilar, munaqqidlar va o‘quvchilar o‘rtasidagi doimiy aloqa;
- yangi asarlarning o‘zaro muhokamasi;
- badiiy didning jamoaviy shakllanish jarayoni ekanligi. Olimning ta’kidlashicha, aynan mana shu “muhit” individual iste’dodning yuzaga chiqishi uchun “oziqlantiruvchi tuproq” vazifasini o‘taydi.

### 3. Adabiy muhit va adabiy oqimlar farqi.

Pospelov adabiy muhitni kengroq tushuncha deb hisoblagan. Uning fikricha, bir adabiy muhit ichida bir necha xil, hatto o‘zaro ziddiyatli bo‘lgan adabiy oqimlar mavjud bo‘lishi mumkin. Muhit – bu umumiy maydon, oqim esa shu maydondagi aniq bir g‘oyaviy yo‘nalishdir.

### 4. Shaxsning roli.

Pospelov adabiy muhitning shakllanishida yetakchi shaxslarning rolini yuqori baholagan. U “adabiy-ijtimoiy tip” tushunchasini ilgari surib, ma’lum bir davrning adabiy muhiti o‘sha davrning “qahramoni” hisoblangan ijodkorlar atrofida jipslashishini isbotlagan [8].

O‘zbek adabiyoti tarixini o‘rganishda “adabiy muhit” tushunchasi muhim nazariy va metodologik kategoriyalardan biri sifatida qaraladi. U muayyan davrda shakllangan ijodiy hamkorlik, estetik qarashlar mushtarakligi, ustoz-shogird an’analari hamda ijtimoiy-madaniy omillar birligi asosida yuzaga keladigan murakkab hodisani anglatadi. Biroq so‘nggi yillarda ayrim hududiy yondashuvlar doirasida ushbu tushunchaning mazmuni toraytirilib, uni ma’muriy-hududiy chegaralar bilan sun’iy bog‘lash holatlari kuzatilmoqda.

Xususan, ayrim viloyatlarda yetishib chiqqan ijodkorlarni faqat tug‘ilgan yoki faoliyat yuritgan hududi asosida bir guruhga jamlab, uni alohida “adabiy muhit” sifatida talqin qilishga urinishlar ilmiy jihatdan yetarlicha asoslanmagan. Bunday yondashuvda ijodkorlar o‘rtasidagi g‘oyaviy-estetik yaqinlik, o‘zaro ta’sir, ijodiy



maktab va an'analar kabi muhim mezonlar ikkinchi darajaga tushib qoladi. Natijada "adabiy muhit" tushunchasi o'zining asl mazmunidan uzoqlashib, formal va statistik birlik darajasiga tushib qoladi.

Mazkur tendensiyaning yana bir salbiy jihati – adabiy jarayonning umumiy manzarasini parchalashidir. Hududiy "muhitlar"ni ko'paytirish orqali yagona adabiy makon sun'iy ravishda bo'linadi, bu esa milliy adabiyot taraqqiyotidagi uzviylik va o'zaro aloqadorlikni xiralashtiradi. Aslida esa adabiyot – bu chegaralarni tan olmaydigan, g'oya va estetik qadriyatlar asosida shakllanadigan, millatni birlashtirib turuvchi yaxlit tizimlardan biridir.

Bundan tashqari, bunday yondashuv ayrim hollarda lokalizm va hududiy manfaatdorlik kayfiyatini kuchaytirib, ilmiy xolislikka putur yetkazishi mumkin. Tadqiqotchi o'z hududidan chiqqan ijodkorlarni sun'iy ravishda bir tizimga kiritishga intilar ekan, tanqidiy yondashuv o'rnini subyektiv baholash egallaydi. Bu esa ilmiy natijalarning ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois "adabiy muhit" tushunchasini qo'llashda, avvalo, uning nazariy mezonlariga tayanish zarur: g'oyaviy-estetik birlik, ijodiy muloqot, an'ana va davomiylik, tarixiy-madaniy sharoit kabi omillar asosiy belgilovchi mezon bo'lishi lozim. Hududiy omil esa faqat yordamchi faktor sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

**Xulosa.** Adabiy muhit – bu shunchaki yozuvchilar to'plami emas, balki jamiyatning ma'naviy ehtiyojlarini badiiy shaklga keltiruvchi "g'oyaviy laboratoriya"dir. Adabiy muhitlar milliy o'zlikni saqlashning muhim quroli bo'lib xizmat qilgan. Bugungi globallashtirish davrida milliy adabiy muhitimizni saqlab qolish va rivojlantirish uchun ushbu tarixiy tajribani o'rganish hayotiy zaruriyatdir. Adabiy muhit – bu ijodkor shaxsning shakllanishi va kamol topishi uchun zarur bo'lgan estetik-ekologik tizimdir. O'zbek adabiyoti tarixidagi muhitlar bir-biridan uzilgan holda emas, balki uzviy aloqada rivojlangan. Zamonaviy adabiyotshunoslikda adabiy muhitlarni o'rganishda nafaqat matnni, balki o'sha davrning ijtimoiy psixologiyasini ham tahlil qilish lozim.

Adabiy muhitni sun'iy ravishda hududiy lashtirish ilmiy tahlilning chuqurligini kamaytiradi, adabiy jarayonning yaxlitligini buzadi va metodologik xatoliklarga olib keladi. Shuning uchun bu masalaga tanqidiy va ehtiyotkor yondashish, tushunchaning asl ilmiy mohiyatini saqlab qolish bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Поспелов Г. Н. Теория литературы. – Москва, 1978.
2. Поспелов Г. Н. Проблемы исторического развития литературы. – Москва, 1972.
3. Поспелов Г. Н. Эстетическое и художественное. – Москва, 1965.



4. [CyberLeninka - G.N.Pospelovning adabiyotshunoslikdagi merosi](#)
5. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1997.
6. Олимов С. Адабий муҳит ва анъана. – Тошкент: Фан, 1994.
7. Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. – Тошкент: Фан, 1961.
8. Исҳоқов Ё. Алишер Навоий поетикаси. – Тошкент: Фан, 1983.

